

## O'rta asrlarda Angliya: ilk parlamentning tashkil topishi

*Xolmamatova Sitara Nurmat qizi*

*Denov Tadbirkorlik va Pedagogika Instituti*

*Tarix yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

*e-mail: xolmamatovasitora6@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola orqali Angliyaning o'rta asrlar tarixi haqida, Angliya tarixida daniyaliklarning yurishlari to'g'risida ma'lumotga ega bo'lasiz. Aynan o'rta asrlarda ilk bor Yevropa mamlakatlarida aholi ro'yxatdan o'tkazildi. Angliyadagi siyosiy jarayonlar va mamlakatdagi noroziliklar ilk parlamentning vujudga kelishiga sabab bo'ldi.

**Kalit so'z:** Buyuk Alfred, Uels, Vilgelm I, Senlak, 1265-yil, "Daxshatli sud kitobi", brittlar.

**Abstract:** Through this article, you will get information about the medieval history of England, about the march of the Danes in the history of England. It was in the Middle Ages that the population was registered in European countries for the first time. Political processes in England and protests in the country led to the creation of the first parliament.

**Key word:** Alfred the Great, Wales, William I, Senlac, 1265, Book of the Terrible Court, Brits.

**Аннотация:** Благодаря этой статье вы получите информацию о средневековой истории Англии, о походе датчан в истории Англии. Именно в средние века впервые была зарегистрирована популяция в европейских странах. Политические процессы в Англии и протесты в стране привели к созданию первого парламента.

**Ключевые слова:** Альфред Великий, Уэльс, Вильгельм I, Сенлак, 1265 г., Книга Грозного двора, британцы.

Angliya- Buyuk Britaniyaning bir qismida tashkil topgan davlat hisoblandi. U g'arbida Uesl bilan, shimolda Shotlandiya bilan, g'arb va shimoli-g'arbda Irlandiya dengizi orqali Irlandiya bilan, janubda esa Kent dengizi bilan chegaradosh. Angliya tarixiga to'xtaladigan bo'lsak So'ngi Paleolid davrida ham bu yerda odamlar yashaganini aytishimiz mumkin. Hozirgi Angliya davlatining rivojlanishi aynan o'rta asrlar tarixi bilan bog'liq desak mubolag'a bo'lmaydi. Rim imperiyasi Britaniya orollarini istilo qilganida orol janubida kelt, britt, shimolida – hozirgi

Irlandiya va Shotlandiyada – skot, pikt qabilalari yashagan. Rim legionlar 407-yilda vataniga qaytishdi. Britaniya mustaqillikka erishgan bo'lsada o'zaro urushlarni davom ettirar edi. Uzoq davom etgan kurashlardan so'ng VI asrning oxiri- VII asr boshlarida saks, yut, angllar Britaniyaning katta qismini egallagan edilar. Mahalliy britlar shimoliy va g'arbiy tog'li hududlarga surib chiqariladi. Britlarning bir qismi urushlarda halok bo'lgan bo'lsa, boshqa bir qismi germanlar bilan aralashib ketgan edi. Ilk o'rta asrlarda daniyaliklar ko'p bora Angliya hududiga hujum uyushtirgan. Angliya tarixida Buyuk Alfred(871-900)daniyaliklarga qarshi kurash olib borgan hukmdor sifatida iz qoldirgan[1]. Buyuk Alfreddan oldin qirol Etelred I daniyaliklar bilan bo'lgan jangda halok bo'lgan edi. Alfred dastlab daniyaliklardan janubga qarab qochadi, ammo keyinchalik yetarli kuch to'plagach ularga qarshi hujumlarga o'tgan. 879-yil daniyaliklar bilan sulh tuzishga erishadi. Angliyaning janubi-g'arbiy qismi amgl-sakslarga, shimoliy qismi angliyaliklarga bo'lib beriladi. Aynan, Alfredning daniyaliklarga qarshi kurashdagi tayyorgarligi Angliyada ritsarlarning vujudga kelishiga turtki bo'ladi. Alfred shahar chegaralarida ko'plab qal'alar qurdiradi. Kent, Uesseks va Mersiyaning qadimgi qonunlari to'planadi va u keyinchalik “ Alfred haqiqati” nomini oladi. Kanut datskiy davlati parchalangach XI asrga kelib Angliya hududida Eduard Ispovednik 1042 yilda normannlar yordamida milliy qirollikni tikladi. Eduard davrida mahalliy amaldorlarning mamlakatni boshqarishdagi ta'siri kuchaydi. Anglo-saks zodagonlarining bir qismi daniyaliklarga moyil edi. Eduard boshchiligidagi ikkinchi bir qism zodagonlar fransuz-normann gertsogi Vilgelm bilan ittifoq tuzishga harakat qildi. 1066 yilda Eduard vafot etgandan keyin zodagonlar mahalliy anglo-saks feodali-Uesseks gertsogi Garoldni qirol etib saylashdi. Lekin Vilgelm “Eduard vasiyati”ni pesh qilib, taxtni zo'rlik bilan o'lishga qaror qildi va 1066 yil sentabr oyida 15ming kishilik armiya bilan La-Mansh bo'g'ozidan o'tib, inglizlar yerini janubiy qismini egalladi. Inglizlar va normannlar o'rtasidagi hal qiluvchi jang 1066 yil 14 oktabrda Gastings yaqinidagi Senlak degan joyda bo'lib, bunda nisbatan yaxshi qurollangan normannlar g'alaba qozondilar, qirol Garold jangda halok bo'ladi. Vilgelm boshliq normandiya gertsogligi g'alaba qozonadi. Normandiya gertsogi Vilgelm 1066 yil 25 dekabrda Londonga kiradi, Vilgelm I “Fotih”(Istilochi) laqabi bilan Angliya taxtiga o'tiradi va 1066-1087 yillarda boshqaradi.[2] Vilgelm I davrida mamlakatda ko'plab islohotlar amalga oshirildi. Qirolning eng yirik mulkdor bo'lishi, baronlarga esa yer-

---

1.T.O' .Salimov, F.E.Sultonov “ Jahon tarixi” T-2017.

mulklarining turli viloyatlardan taqdim etilishi Fransiyadagi kabi mustaqil grafliklarning tashkil topishiga to'sqinlik qiladi. Normanlar istilosi natijasida dehqonlarga zulm o'tkazish kuchayadi. O'z hokimiyatini mustahkamlash maqsadida normandlar Angliya bo'ylab ko'plab qal'alar qurdiradi. Ularning eng mashhuri Londondagi Tauer bo'lib, u hozirgacha saqlanib qolgan. Angl-sakslarning doimiy qo'zg'olon ko'tarish xavfi baronlarning qirol tevaragida yanada jiplashuviga olib keladi. Vilgelm I egallagan hududlarining iqtisodiy imkoniyatlarini bilish maqsadida Yevropada ilk bor ya'ni 1086-yili mulk va aholini ro'yxatga olishni buyuradi. Ro'yxatga oluvchilar faqat haqiqatni aytib javob berishlari haqida qasamyod qabul qilishgan. Aynan shu narsa mamlakat aholi orasida ko'plab norozilikka sabab bo'lgan va u xalq orasida "Daxshatli sud kitobi" nomini olgan. 1086 yilgi ro'yxatga ko'ra Angliyada bordari va kottarilar aholini 32% ini tashkil qilib, ular 89ming kishini tashkil qilgan, villanlar esa 38% ini tashkil qilib, ular 10.600 kishini tashkil qilgan, erkin kishilar esa 12% ini tashkil qilib, 33ming kishidan iborat bo'lgan[3]. Ingliz tarixchisi A. Mortonning ma'lumotlariga qaraganda 1086 yilda Angliya aholisi 2mln kishini tashkil qilgan. Vilgelmning o'g'li Vilgelm II Malla (1087-1100) va Genrix I (1100— 1135) lar otalarini siyosatini davom ettirdilar. Qirollik ayniqsa Genrix I davrida kuchaydi. Genrix I davrida qirollik sudi kuchaytirilib, u maxsus sudyalalar vaqt-vaqti bilan mamlakat bo'ylab safarga chiqib, grafliklarda sud ishlarini amalga oshira<sup>2</sup>r edilar. Sudlov palatasi "Qirollik sud kursisi" degan nom oldi. O'zidan o'gil farzand qoldirmagan Genrix I vafotidan so'ng, uning qarindoshlari o'rtasida taxt uchun kurash kuchayib ketdi. Taxt Genrix I ning jiyani Stefan Bluasskiy qo'liga o'tdi. Ammo Genrix I ning qizi Matilda ham taxtga da'vogar bo'lib chiqdi. Matilda dastlab german imperatori Genrix V ning xotini edi, keyin esa ikkinchi nikoh bilan Fransiyadagi Anju grafi Jofrua Plantagenetga turmushga chiqqan edi. Stefan bilan Matilda o'rtasidagi kurash qariyb 20 yil davom etdi. 1154 yilga kelib o'zaro urushlar to'xtadi. Taxt Matildaning o'g'li-Genrix II Plantagenetga o'tdi.

"Plantagenet" laqabi Anji graflariga Jofruani otasidan meros tariqasida o'tgan edi. Uning otasi Fulek Anjuyskiy salib yurishlari davrida Quddus qiroli bo'lgan Bolduin II ning kuyovi bo'lib, o'zi ham 1131-1143 yillarda Quddus qirolligini boshqarib, o'zining gerbiga cho'lda o'sadigan sariq gulli o'simlik (plata genista) tasvirini ramz sifatida chizdirgan edi. Shundan boshlab, bu avlod plantagenetlar

---

2. V.F. Semenov "O'rta asrlar tarixi" T-1974.

3. Salimov T.O' "Jahon tarixi" (Yevropa mamlakatlari V-XV asrlarda) T-2014

sulolasi deb atalgan. Genrix (1154-1189) davrida qirollikka tegishli hududlar kengaytirildi, Anji, Puate, Turen, Angliya tarkibiga qo'shildi, fransuz qiroli Lyudovik VII ni qoyib yuborgan xotini Eleonoraga uylanib, uning mulki bo'lgan Puatu, Gyenn, Gaskon yerlariga ham ega bo'ldi.

XIII asr boshida Angliya siyosiy kurashlar maydoniga aylandi. Bu kurash ayniqsa Genrix II ning o'g'illari Richard I Sher Yurak (1189-1199) va Ioann (Jone) Yersiz (1199-1216) davrlarida kuchaydi. Ioann Yersizning obro'siga zarba bergan birinchi sabab, Angliyaning Fransiya bilan bo'lgan to'qnashuvi va bu to'qnashuvda inglizlarning mag'lubiyati bo'ldi. Angliya shimoliy Fransiyadagi Normandiya, Anji, Turen, Puatuning bir qismidan mahrum bo'ldi. Yuqoridagilar mamlakat ichida uning obro'sizlanishiga olib keldi va Ioann Yersizni 1215 yilda o'z baronlari bilan to'qnashtirdi. 1215 yil yozida ritsarlar va shaharliklar tomonidan qo'llab-quvvatlangan baronlar Ioangga qarshi ochiq urush e'lon qildilar. Qirol esa o'z dushmanlarining kuch jihatdan ustun ekanligini sezib, 1215 yil 15 iyunda qo'zg'olon ko'targanlarning talablari bayon qilingan hujjatni imzolashga majbur bo'ldi. Bu hujjat o'rta asrlar Angliya tarixida "Buyuk erkinlik xartiyasi" nomi bilan mashhurdir.[4]

1265 yil yanvarda Simon de Monfor mamlakatni boshqarish komissiyasi majlisini chaqirdi va bu majlisga baronlardan va yepiskoplardan tashqari, har bir graflikdan va kattaroq shaharlardan ikkitadan vakil taklif etdi. Bu amalda, Angliya parlamenti faoliyatining boshlanishi edi. Shunday qilib, fransuz General shtatlariga o'xshash, Angliyada birinchi marta uch toifa vakillaridan iborat parlament chaqirildi. Simon de Monforga hokimiyat tepasida uzoq vaqt turish nasib qilmadi. Shahzoda Eduard asirlikdan qochib, qirollikka keladi va qirollik kuchlarining asosiy tashkilotchisi bo'lib qoladi. Eduard I davriga kelib Shotlandiya va Uel's bilan urush olib borildi. Shotlandiya bilan urush olib borishdagi moliyaviy qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun, soliq undirishni qonunlashtirish uchun 1295 yilda parlamentni to'liq tarkibda chaqirdi. Bunda har bir grafliklardan dvoryanlar, ruhoniylar va shaharliklardan, ya'ni, har bir ijtimoiy tabaqa vakillaridan ikki kishidan iborat vakillar qatnashdilar. Bu parlamentning tarkibi kelajakda ana shunday yig'ilishlar uchun namuna bo'lganligidan, uni keyinchalik «namunali parlament» deb atadilar. Shu vaqtdan e'tiboran Angliya parlamenti muntazam suratda yig'iladigan bo'ldi, parlament, 1297 yildan boshlab, soliqlarni tasdiqlash huquqini qo'lga kiritdi. Shuni

---

<sup>34</sup>. Qurbangaliyeva R "O'rta asrlar tarixi" T-1991.

aytib o'tish joizki, hozirgi kunda Buyuk Britaniya parlamenti Vestminster saroyida faoliyat olib boradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, o'rta asrlar Angliya tarixida o'chmas iz qoldirdi. Aynan Yevropada ilk bor aholi ro'yxatdan o'tkazilishi ham Angliyada kuzatildi. Siyosiy o'zgarishlar nafaqat Angliyaga balki, butun dunyoga ham ta'sir qildi desak mubolag'a bo'lmaydi. Angliyada ilk parlamentning tashkil topishi aynash o'sha davrdan boshlab mamlakat hayotida demokratiyaning balki, davlatning boshqaruvdagi rivojlanishini ham ko'rsata oldi. Va bularning bari, hozirgi zamonaviy Angliya uchun bir poydevor hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. T.O'.Salimov, F.E.Sultonov "Jahon tarixi" T-2017.
2. V.F. Semenov "O'rta asrlar tarixi" T-1974.
3. Савело К.Ф "Раннефеодальная Англия" 1997.
4. Qurbangaliyeva.R "O'rta asrlar tarixi" T-1991.
5. Удальсова З.В "История Европа" 1988.
6. Salimov T.O' "Jahon tarixi" (Yevropa mamlakatlari V-XV asrlarda) T-2014